

"Harbiy-vatanparvar"



Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularda Vatanga daxldorlik hissini uyg'otish, harbiy sohaga bo'lgan qiziqishlarini oshirish, shuningdek, ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash, iqtidori va iste'dodini ro'yobga chiqarish hamda hayotda o'z o'rnini topishga ko'maklashish maqsadida Termiz garnizonida joylashgan harbiy qism tomonidan shaharning 26-maktab o'quvchilari uchun "Yoshlar milliy armiya nigohida" shiori ostida harbiy-vatanparvarlik festivali o'tkazildi. Unda harbiy qism harbiy xizmatchilari, maktab o'quvchi yoshlari, faxriylar hamda keng jamoatchilik vakillari ishtirok etdi.

Dastlab, maktabda tashkil etilgan tadbirda so'z olganlar so'nggi yillarda mudofaa tizimida olib borilayotgan ishlar xususida so'z yuritdi. Bu kabi festivallar yoshlarni Vatanga muhabbat, harbiy kasbga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshirishga xizmat qilishini alohida ta'kidlab o'tishdi.

Shundan so'ng, tadbirning asosiy qismiga navbat berildi. Tadbir davomida harbiy orkestrning kuy-qo'shiqlari, faxriy qorovulning hamda qo'l jangi ustalarining ko'rgazmali chiqishlari yig'ilganlarga namoyish etildi.

Shuningdek, festival doirasida O‘zbekiston Respublikasi mudofaasiga ko‘maklashuvchi “Vatanparvar” tashkiloti Surxondaryo viloyat kengashining sport texnikalari yoshlar e‘tiboriga havola qilindi.